

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

*Andijon Davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo`nalishi 1-kurs magistrant*

Tursunova Gulsora Adahamjon qizi

Tursunovagulsora99@gmail.com

ORCID: 0009 0007 7525 8160

*Andijon Davlat Pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: f.f.d. **M.J.Mahamatova***

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada globallashuv zamonida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda zamonaviy ta`lim tizimining roli, ta`lim orqali ekologik barqarorlikni ta`minlash va innovatsion yondashuvlarni tashkil qilish jamiyat rivojlanishiga xizmat qilishi keng yoritilgan. Shu bilan birga ilg`or xoriiy tajribalardan foydalanish texnologiyasi keng tahlil qilingan.

KALIT SO`ZLAR: Globallashuv, xoriiy tajribalar , texnologiya , jamiyat , barqarorlik, zamonaviy tizim . .

ABSTRACT: The article discusses in detail the role of the modern education system in achieving sustainable development goals in the era of globalization, ensuring environmental sustainability through education and organizing innovative approaches to serve the development of society. At the same time, the technology of using advanced foreign experience is widely analyzed.

KEYWORDS: Globalization, foreign experience, technology, society, stability, modern system.

АННОТАЦИЯ: В статье подробно обсуждается роль современной системы образования в достижении целей устойчивого развития в эпоху глобализации, обеспечении экологической устойчивости посредством образования и организации инновационных подходов для служения развитию общества. В то же время широко анализируется технология использования передового зарубежного опыта.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Глобализация, зарубежный опыт, технологии, общество, стабильность, современная система.

KIRISH

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish zamonaviy ta`lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Ta`limda barqarorlikni ta`minlash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish jamiyatning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi. Finlandiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlarining ta`lim tizimidagi innovatsiyalar

globallashuv sharoitida ta'lim tizimi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ta'lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanish bugungi global muammolarning yechimi sifatida ko'rilib, u ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi esa ushbu jarayonda muhim o'rinn tutadi, chunki u inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion yechimlarni yaratishda asosiy omil hisoblanadi.

Sifatli ta'lim – bu faqat bilim berish emas, balki o'quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kreativlik, tanqidiy tafakkur va innovatsion yondashuvni shakllantirish demakdir. Shuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga tatbiq etish, xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy an'anaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar ta'lim sifati va samaradorligining ko'rsatkichlarini aniqlashga oid turli mezonlarni ishlab chiqmoqda. Bu mezonlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rinn tutadi. Bugungi kunda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish, innovatsion iqtisodiyotga asos bo'ladicgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni egallagan shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Biroq, bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish pedagogik muammo sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda. "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" da ta'lim tizimiga oid asosiy yo'nalishlar keltirilgan:[1]

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish

Maktabgacha ta`lim muassasalari sonini ko`paytirish va ularning moddiy -texnik bazasini mustahkamlash.

Xusussiy sektorni jalb etish orqali nodavlat maktabgacha ta`lim muassasalarini rivojlantirish.

Umumiyo'rta ta'lim sifatini oshirish

Darsliklarni yangilash va ularni zamonaviy talablar asosida qayta ishlab chiqish.

O'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish

Oliy ta`lim muassasalarining moddiy texnik bazasini yaxshilash va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va innovatsion loyihalarni qo'llab quvvatlash.

O'qituvchilar malakasini oshirish

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish uchun uzlucksiz ta`lim tizimini yaratish.

O`qituvchilarning ijtimoiy va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali ularning kasbiy nufuzini oshirish.

Raqamli ta`limni joriy etish

Ta`lim jarayonlariga axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish. Masofaviy ta`lim platformalarini rivojlantirish va elektron ta`lim resurslarini yaratish.

Yevropa va Osiyo davlatlarida ilg`or ta`lim texnologiyalaridan foydalanish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning samarali tajribalari shakllangan. Jumladan, Finlandiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyada ta`lim tizimi uzluksiz modernizatsiya qilinib, raqamli texnologiyalar shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan . Ta`lim tizimining barqaror rivojlanish maqsadlariga ta'siri bo'yicha nisbiy taqqoslash va holat tahlili case study metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar Yevropa va Osiyo mamlakatlarining rasmiy ta`lim agentliklari hisobotlari, xalqaro tashkilotlar UNESCO, OECD tadqiqotlari va ilmiy maqolalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, quyidagi jihatlar e'tiborga olindi: [2]

Ilg`or ta`lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari

Ta`lim tizimi va ekologik barqarorlikning o'zaro bog'liqligi.

O'zbekiston ta`lim tizimining rivojlanish yo'nalishlari .

Ilg`or xorijiy ta`lim tajribalari ta`lim sifatini oshirish bilan birga barqaror rivojlanishning boshqa yo'nalishlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Finlandiya – kompetensiyaga asoslangan ta`lim tizimi tufayli talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati va innovatsion salohiyati rivojlangan .

Germaniya – dual ta`lim tizimi orqali yoshlarning amaliy bilim olishi va bozorga tez moslashishi ta'minlangan .

Yaponiya – maktab va universitetlarda ekologik ta`lim bo'yicha maxsus dasturlar yo'lga qo'yilgan .

Janubiy Koreya – raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida o'qitish samaradorligi oshirilgan .Shuni aytish joizki, ilg`or texnologiyalar ta`lim samaradorligini oshirish bilan birga iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta`limda sun'iy intellekt, masofaviy ta`lim va onlayn platformalarning roli ortib bormoqda. Masalan: Singapur – barcha davlat maktablarida masofaviy ta`lim platformalari joriy etilgan bo'lib, har bir o'quvchi o'zining individual o'quv rejasini bo'yicha ta`lim olishi mumkin .

Germaniya – universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari sun'iy intellektdan foydalangan holda moslashtirilgan ta`lim tizimlarini ishlab chiqmoqda . Bunday innovatsiyalar ta`lim sifatini oshirish bilan birga ta`lim jarayonining ekologik samaradorligini ham ta'minlaydi. O'zbekistonda ta`lim tizimi isloh qilinayotgan bo'lsa-da, xorijiy ilg`or tajribalardan to'liq foydalanish hali yetarli darajada emas.

Shunga qaramay, quyidagi muhim yutuqlar kuzatilmoqda: "Raqamli O'zbekiston - 2030"[3] strategiyasi doirasida ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi amalga oshirilmoqda .

Xalqaro universitetlar filiallari ochilmoqda – Turin Politexnika Universiteti, Singapur Menejment Universiteti kabi oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Ekologik ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda, lekin hali ommaviy tarzda joriy etilmagan . O'zbekiston sharoitida xorijiy ilg'or texnologiyalarini joriy etish ta'lim sifati va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim o'rinni.

Yevropa davlatlari ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlardan keng foydalanmoqda. Xususan: Finlandiya modeli – o'quvchilarga bosim yuklamasdan, individual yondashuv asosida ta'lim berish .

Germaniya dual ta'lim tizimi – nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish orqali mutaxassis tayyorlash .

Buyuk Britaniya STEAM modeli – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtirish. Ushbu modellar zamonaviy ta'lim texnologiyalarining natijadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Osiyo davlatlari, ayniqsa Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur ta'lim sifati bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlarda turadi . Ularning muvaffaqiyatining asosiy omillari quyidagilardan iborat: [4]

Janubiy Koreya – raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish

Yaponiya – kollektiv ta'lim va innovatsion yondashuvlar.

Singapur – "Hayot davomida ta'lim" modeli Ushbu davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimida texnologik innovatsiyalarini qo'llash sifatni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini modernizatsiya qilishga oid qarorlarida ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Jumladan:[5]

Raqamli ta'lim platformalarini yaratish va rivojlantirish;

Kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim modelini keng joriy etish;

STEAM yondashuvi asosida ta'lim sifatini oshirish.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O'zbekistonda xorijiy ilg'or tajribalarni joriy etish orqali ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilg'or xorijiy ta'lim tajribalari barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa va Osiyo davlatlarining innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish bilan birga iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi. Barqaror rivojlanish va ta'lim tizimi o'rtasidagi bog'liqlik . Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ta'lim tizimi

muhim o‘rin tutadi. Yevropa va Osiyo davlatlarining ilg‘or tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda bu boradagi islohotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuninhdek, ta’lim insonni rivojlantirish vositasi sifatida iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi . BMTning 4-sonli barqaror rivojlanish maqsadi aynan sifatli ta’limni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bunda barcha yoshdagи shaxslarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘rayev R. – “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” (Namangan, 2022).
2. Xurshida Mamatsoliyeva – “Rivojlangan ta’lim tizimi: Finlandiya tajribasining dunyo ta’lim sifati uchun namunaviy jihatlari” Tamaddun Nuri, 2024
3. Mamatraimov Komil Mamatmurod o‘g‘li – “O‘zbekiston–2030 strategiyasi mamlakat ilm-fan taraqqiyotining asosiy mezoniga aylanmoqda” Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 2024.
4. Pasi Salberg – “Finlyandiya darslari: maktab ta’limi islohotlari tarixi” Art-Tranzit, 2015.
5. Yulduz Ne’matjonova – “Finlandiya ta’lim mo‘jizasi – uzlucksiz ta’lim misolida” Nordic_Press, 2024.